



Qo'qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 4/2024

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№4/2024

Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son

УЎҚ 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99	Bosh muharrir: Qo'qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas'ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor N.A.Kadirova Mas'ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i D.O'rinboyev Nashr uchun mas'ul: O.Y.To'xtasinova- filologiya fanlari nomzodi, dotsent
MUASSIS: Qo'qon davlat pedagogika instituti Qo'qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro'yxatga olingan. Jumaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart. Bosishga ruxsat etildi: 2024-yil 29-iyun Qog'oz bichimi: 60x84 1/8 Ofset bosma, Ofset qog'oz. Adadi: 100 nusxa Buyurma №250 Muqova dizayni va original maket Qo'qon DPI tahririyat-nashriyot bo'limida tayyorlangan. "Poliraf Super Servis" MCHJ bosxonasida chop etildi. Manzil: Farg'ona shahar, Aviasozlar ko'chasi 2-uy. "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro'yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo'yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Cайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2024	TABIIY FANLAR И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) V.U.Xo'jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) M.T.Isog'aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'ZB) O.A.Turdiyev, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) G'.M.Ochilov, kimyo fanlari nomzodi, professor (O'ZB) B.No'monov, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) G.Israilov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'ZB) IJTIMOIIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) PEDAGOGIKA FANLAR P.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB)



BO'LAJAK PEDAGOGLARNING ANTIKORRUPSION KOMPETENTLIGINI «HALOLLIK VAKSINASI» ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Isroilov G'olib Rashidovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarning antikorrupsion kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati va uni amalga oshirishda «halollik vaksinasi» g'oyasining samaradorligi tahlil qilinadi. Antikorrupsion kompetentlikni shakllantirish pedagoglarga kasbiy faoliyatlarida halollik va adolatlilikka rioya qilish, korrupsiya holatlariga qarshi immunitet hosil qilish imkoniyatini beradi. Maqolada antikorrupsion tarbiya va ta'lim jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan usullar, interaktiv yondashuvlar va axloq kodekslarining ahamiyati yoritilgan. Shunday qilib, «halollik vaksinasi» yosh pedagoglarning shaxsiy va kasbiy faoliyatida halollikni ta'minlashning muhim vositasi sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagoglar, halollik vaksinasi, axloq va etika, korrupsiyaga qarshi kurash, halollik, axloqiy tarbiya, korrupsiyaga qarshi kurash, pedagogik ta'lim, axloqiy tarbiya, qonunchilik, korrupsiyaga qarshi immunitet.

РАЗВИТИЕ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ НА ОСНОВЕ «ВАКСИНЫ ЧЕСТНОСТИ».

Аннотатсия: в данной статье анализируется важность развития антикоррупционной компетентности будущих педагогов и эффективность идеи «вакцины честности» при ее реализации. Формирование антикоррупционной компетентности дает педагогам возможность соблюдать честность и справедливость в своей профессиональной деятельности, формируют иммунитет против коррупции. В статье подчеркивается важность методов, интерактивных подходов и этических кодексов, которые должны быть реализованы в процессе антикоррупционного образования и обучения. Таким образом, «вакцина честности» показана как важное средство обеспечения честности в личной и профессиональной деятельности молодых педагогов.

Ключевые слова: будущие педагоги, вакцина честности, морал и этика, борьба с коррупцией, честность, нравственное воспитание, борьба с коррупцией, педагогическое образование, нравственное воспитание, законодательство, иммунитет от коррупции.

DEVELOPMENT OF ANTI-CORRUPTION COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE "INTEGRITY VACCINE".

Abstract: this article analyzes the importance of developing anti-corruption competence of future teachers and the effectiveness of the idea of the "honesty vaccine" in its implementation. The formation of anti-corruption competence gives teachers the opportunity to observe honesty and fairness in their professional activities, to form immunity against corruption. The article emphasizes the importance of methods, interactive approaches and ethical codes that should be implemented in the process of anti-corruption education and training. Thus, the "honesty vaccine" is shown as an important means of ensuring honesty in the personal and professional activities of young teachers.

Keywords: future teachers, honesty vaccine, morality and ethics, fight against corruption, honesty, moral education, fight against corruption, pedagogical education, moral education, legislation, immunity from corruption.

Bugungi kunda jamiyatlarda korrupsiyaviy xavfsizlikni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki korrupsiya jamiyatni barqarorlikdan beqarorlikka olib boradigan, uni yemiradigan jamiyat a‘zolarini axloqiy jihatdan tubanlashtiradigan va ularda halollikka doir qarashlarini o‘zgartirib yuboradigan ijtimoiy illatdir.

Nazarimizda, «halollik vaksinasi» inson qalbiga igna bilan emas, iymon nuri orqali o‘tib, uning vijdonini poklaydi. Har qanday insonga qondan va ona suti orqali «halollik vaksinasi» singib boradi. Demak, inson halol bo‘lishi uchun uning iymoni butun bo‘lishi lozim. Har bir odam o‘z ishini halol bajarsa, u «halollik vaksinasi» bilan emlanganbo‘ladi. Ana shunday immunitetni shakllantirish vazifasi avvalo ota-onalar, maktabgacha va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlari, shuningdek, xalqimizning ziyoli, ma‘naviyatli qismi zimmasiga yuklanadi. Iymonli odam harom luqma, birovning haqini yeyishdan, harom ishlar qilishdan tiyiladi, chunki uning vijdoni pokligi bunga yo‘l qo‘ymaydi. Va albatta, u ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, xalqi va Vatani uchun fidoyilik bilan halol mehnat qiladi, halol luqma topib, farzandlariga yediradi. Biroq yaqin vaqtgacha «halollik vaksinasi» bilan emlanmagan odamlar poraxo‘rlikka, tanish-bilishchilikka berilib ketishi natijasida korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘yishdi. Bu holat, barcha sohalarida bo‘lgani kabi, ta‘lim muassasalariga kirib kelishi kechirilmas va achinarli holat sanaladi. Oliy ta‘lim muassasalarida tanish-bilishchilik, tog‘ajiyanchilik asosida o‘qishni bitirib, diplom olgan mutaxassis, yana shu asosda ishga joylashib ham olardi. Ilmni puxta egallamagan «mutaxassis»dan nimani ham kutish mumkin. Bundaylar ishlaydigan soha oqsaydi, rivojlanish bo‘lmaydi»⁹, oxir-oqibatda jamiyatni botqoqlikka qarab tortadi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosiqchida yuqori intellektual salohiyatga, teran tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo‘lish bilan birga yuksak axloqiy sifatlarni o‘zida mujassam etgan kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Sababi yuksak aqliy salohiyatga ega yoki teran tafakkurli rahbar kadrlar va mansabdor shaxslar bilan bog‘liq korrupsiyaviy holatlar va jinoyatlar kadrlar tayyorlash masalasiga yangicha yondashuvni va

⁹«Halollik vaksinasi» U qanday emlanadi?<https://bojxona.uz/uz/news/view/4068>.

maxsus metodikani zaruratga aylantirmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev ham «yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli, tashabbuskor, ilg‘or boshqaruv usullarini puxta o‘zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo‘yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o‘zgarishi yuz bermasligini alohida ta’kidlab kelmoqdalar»¹⁰. Shunday ekan, ijtimoiy falsafa doirasida halol va sadoqatli kadr kategoriyalarini tadqiq etish ham muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashda rahbar kadrlarda va davlat hizmatchilarida yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Chunki korrupsiyaviy munosabatlar davlat hizmatlari yoki rahbar kadrlar bilan kasbiy munosabatlarda ko‘proq yuzaga keladi. Shu bilan birga korrupsiya hizmat vakolatini sui’stimol qilish orqali yuzaga kelsa, rahbar kadrlar va davlat hizmatchilarida yuksak axloqiy fazilatlar, xususan, halollik, vijdonlilik va mas’uliyatni oshirish orqali kurash yo‘llarini kengaytirish kerak bo‘ladi.

Korrupsiyaviy xavfsizlikni shakllantirishda halollik muhim ahamiyatga ega sifatlardan biri hisoblanadi. Chunki davlatda kuchli nazorat tuzilmasi va qat’iy jazolash mexanizmi ishlab tursada, yukmak axloqiylik shakllanmagan, halol hizmatchilar mavjud bo‘lmagan sohada korrupsiyaviy munosaabtlar namoyon bo‘laveradi. Halollik ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida kuchli qadrlangan insoniy fazilatlardan hisoblanadi. Barcha dinlarda ham insonlarni birinchi navbatda halol bo‘lishga davat etiladi. Shunday ekan, halollikning negizi bo‘lgan pok vijdon bilan ish yuritish zaruratini jamiyatimizning har bir qatlami ongiga joylash muhim vazifalardan biridir. Lekin Arastuning fikrlaridan kelib chiqsak, hallolik amaliy o‘rnak bo‘lish orqali shakllanishi kelib chiqadi. Ya’ni oilada, jamoada va jamiyatning har bir sohasida hallolikning qay darajada namoyon bo‘lishi ijtimoiy muhitda ushbu fazilatni qay darajada qadrlanishiga bog‘liq. Oilada ota-onaning halollikka bo‘lgan munosabat va vijdonan ish yuritish tamoyillari albatta farzandiga ta’sir ko‘rsatadi.

Qadimgi dunyoning mashhur mutafakkiri Aristotelning «Odam aqli borligi uchun maqtalmaydi» degan so‘zlari bir qarashda bahsli, munozarali ko‘rinadi. Ammo aqllilik, oqillik agar go‘zal insoniy fazilatlar bilan uyg‘unlashmasa, uni maqtash mumkin bo‘lmaydi. Chunki yulg‘ich, poraxo‘r va boshqa nopok ishlar qiluvchi odamlarning ko‘pchiligi o‘zlaricha ancha aqlli odamlardir¹¹. Ammo bu aql xudbin aqlidir. Shunday ekan, yangi milliy taraqqiyot bosqichida mamlakatimizga bilimli va salohiyatli bo‘lish bilan birga halol kadrlar ham zarurligi namoyon bo‘lmoqda. Zero, «haqiqiy halollik, buzilmas adolat birlamchi va eng muhim fazilat sifatida mislsiz og‘ir vazifa, unga butun qalbi bilan berilgan inson tez orada shunaqangi qurbonlik qilishga majbur bo‘ladiki, pirovard natijada uning uchun hayotning hech qanday shirinligi, maftunkorligi, qizig‘i qolmaydi – va inson ixtiyordan voz kechadi. Halollika nisbatan hurmatning ma’nosi ham shunda, halollikning o‘zi emas, balki uning uchun qilingan

¹⁰Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017, 1-tom, – 55 b.

¹¹Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017, 1-tom, 104 b.

qurbonlik hurmatga sazovordir. Shunday ekan, to‘g‘ri va halol inson hayot bilan bog‘liq bo‘lgan azob - uqubatlarni hiyla yoki kuch vositasida birovning yelkasiga tashlab qo‘ymaydi, o‘zining og‘ir yukini o‘zi ko‘taradi, hayotdagi insoniy yovuzliklarning hammasiga birovning emas, o‘zining ko‘ksini qalqon qiladi. Shunday halol yashashning oqibati bo‘lmish tengsiz iztiroblar o‘ziga xos forig‘lanishga, buddaviylik iborasi bilan aytganda nirvanaga olib keladi: bunday oliy ma‘naviy maqomga ruhan erishgan inson hayotga ixtiyorni inkor etadi»¹². Halollik fazilati «sho‘rolar hukmronlik qilgan chorakam bir asr vaqt mobaynida yolg‘on, aldov, nopoklik, haromxo‘rlik, munofiqlik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdirildiki, ko‘pchilik odamlar halollik, rostgo‘ylik ustidan hatto kuladigan bo‘lib qolganlar. So‘z bilan ish birligi yo‘qolgan, qog‘ozdagi chiroyli gaplar hayotga to‘g‘ri kelmaydi. Lekin bularning hammasi, afsuski, odatiy holdek qabul qilinadi. Shu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi kurash boshlandi»¹³.

Halollik kategoriyasi o‘z ichiga adolat, vijdon, insof, or-nomus, diyonat kabi fazilatlarni qamrab oladi. Umuman olganda, halol inson avvalo vijdonli, insofli adolatli va dinu-diyonatli bo‘ladi. Inson vijdonli bo‘lib, halol bo‘lmasligi aslo mumkin emas. Yoki adolatli insonni qattiqqo‘l bo‘lsa ham halol deb tariflash mumkin bo‘ldai. Axloqshunoslik nuqati nazaridan ham insondagi fazilatlar bir birini talab qiladi va bir biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Asosiy ahloqiy mezoniy tushuncha bo‘lgan muhabbatning inson qalbida mavjudligi, insonni inson sifatida qadrlash istagi har bir insonda fazilatlarni shakllantiradi. Mashhur mutafakkir Erix Fromm vijdonli insonda barcha fazilatlar mujassam bo‘lishini ta’kidlaydi. Chunki «vijdon - bu, insonning o‘zi tomonidan qo‘yilgan kuzatuvchidir. U insonni o‘ziniki deb hisoblaydigan istak va maqsadlarga muvofiq ravishda harakat qilishga undaydi»¹⁴. Shunday ekan halollik fazilatini falsafiy tahlil qilishda unga bog‘liq bo‘lgan tushunchalargi ham tadqiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mashhur mutafakkir Farobiyadolatlilikni xayrli narsalar, ya’ni moddiy boyliklar, hurmat, ehtirom, martabalar, salomatlik va boshqalarni to‘g‘ri taqsimlanishida deb biladi. Har bir kishi ulardan o‘ziga tegishlisini olishi adolatlilik bo‘ladi. Shuningdek u adolatlilikni mkhribonlik bilan bog‘lab, fazilatli shahardagi mehribonlik, avvalo, fazilatli ishlarda va fikrlarda ko‘rinmog‘i kerakligini ta’kidlaydi. Yassaviylik tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviyo‘zining «Hikmat» asarida insonning bu dunyoda yashashidan maqsadi, halol va pok bo‘lishi, nafsning quliga aylanmasligi, nodonlik va johillik, zulm va istibdod, adolatsizlik, takabburlik, yolg‘onchilik, ta’magirlik kabi illatlarga salbiy munosabatda bo‘lishi kerakligini yozadi.

Vijdonlilik fazilati ham hallolik kategoriyasiga ma’nodosh tushuncha hisoblanadi. Halol odam deganimizda ko‘z o‘ngimizga birinchi navbatda vijdonli inson gavdalanadi. Shunday ekan vijdon va vijdonlilikning mazmun-mohiyatini tahlil qilish joiz deb hisoblaymiz. Vijdon mashhur faylasuf, ruhiyat tahlili yo‘nalishi asoschisi Zigmund Freyd yondashuvi bo‘yicha

¹² Abdulla Sher. Axloqshunoslik. –Toshkent.: 2007. – 104 b.

¹³ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. –T.: 2007. – 221 b.

¹⁴ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. –T.: 2007. – 86 b.

aytganda «super men», ya’ni men ustidan nazorat o‘rnatib, uni boshqarib boradigan yuqori «men» hisoblanadi. Aslida vijdon axloq ilmi nuqtai nazaridan ularsa, baholash mezoniga ega hisoblanadi. Lekin bu baholash xususiyati ob’ektga qaratilmaydi, balki sub’ektga yo‘naltiriladi. Ayrim xollarda jamiyatda o‘rnatilgan nomalar va talablari o‘rtasida qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi. Bunda vaziyatda vijdonning g‘alabasi insonni halol va pok qilsa, mag‘lubiyati uni nopok insonga aylantiradi. Ijtimoiy hayotda vijdon tushunchasi ko‘p xollarda imon iborasi bilan almashtirib ishlatiladi. Kimgadur nisbatan «imonli odam» deyilganda uni qaysidir dinga e’tiqod qilishini emas, balki vijdoni, diyonati borligi nazarda tutiladi. Shunday ekan, vijdonli odam nomusli, halol va adolatli bo‘ladi. Nemis klassik falsafasi vakili, mashhur mutafakkir Immanuel Kant fikriga ko‘ra, insonga o‘zini – o‘zi nazorat qilishi uchun vijdon berilgani, u insonni ikkiga ajralib yashashga chek qo‘yishini ta’kidlaydi. «Vijdon bilan berkinmashoq o‘ynab bo‘lmaydi, uni aytganingga ko‘ndira olmaysan. Uni uxlatib qo‘yish ham mumkin emas, ertami - kechmi uyg‘onadi-da, qilmishingga javob berishga majbur» etishini ko‘p bora ta’kidlab o‘tadi. Boshqa bir mutafakkir Dostoevskiy bo‘lsa, vijdon orqali inson o‘zining nopokligini, xarom amallarini yengishga yordam beradi. Boshqa bir mutafakkir Artur Shopenhauer bo‘lsa, «o‘zgalar va o‘z vijdoni oldida javobgarlikni sezmagani kishi xohlagan ishga qo‘l urishi mumkin - uni o‘z qilmishining oqibati qiziqtirmaydi, u faqat manfaat ustuvorligini tan oladi, xolos», degan fikrni ilgari surish orqali vijdonning halol bo‘lib yashashdagi o‘rnini juda aniq qilib ko‘rsatib beradi.

Halollik kategorisini tahlil qilishda va uning mazmun-mohiyatini anglashda insoflilik tushunchasini ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki halollik o‘z ichiga vijdon, insoflilik, din-u diyonat, or-nomusni qamrab oladi. Halol inson birinchi navbatda insofli bo‘lishi lozim. Insoflilik vijdon tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lum ma’noda halollik tushunchasiga o‘xshab ketadi. Chunki halollik o‘z haqi va haqqini, ya’ni moddiy va ma’naviy huquqini o‘zgalarning haqi va haqqiga hiyonat qilmagan holda yashashni taqazo etadi. Insoflilik esa insonning halollikka asoslangan ma’naviy va moddiy haqning o‘zgalarga berilishidir.

Halollik vijdon, adolat va burch kabi axloqshunoslik mezoniy tushunchalari bilan bog‘liq, insonning o‘zgacha munosabati o‘zicha munosabatidek sof, pokiza bo‘lishini talab qilidigan axloqiy me’yordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelgan. Masalan islomda har bir musulmonning yemak-ichmagi, jinsiy va iqtisodiy xatti-harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar’iy me’yori bo‘lib amal qilgan, uning ziddi-harom diniy nuqtai – nazardan salbiy hisoblangan xatti-harakatlarga nisbatan qo‘llanilgan. Albatta, bunday me’yori boshqa xalqlarda ham mavjud. Misol uchun, nemis yozuvchisi Shillerning fikricha, «Halollik har qanday martabani bezaydi» yoki ingliz adibi Volterni yozishicha «Halol odamni ta’qib etish mumkin, ammo uni badnom qilib bo‘lmaydi».

Insonni ma’naviy, axloqiy jihatdan bezaydigan ziynat halol, pokiza yashash, birovlarining haqiga hiyonat qilmaslikdir. «Turkiston mulkining shayxul mashoyixi» Xoja Ahmad Yassaviy e’tiqodicha, «Xaq yo‘liga kirib bo‘lmas pok bo‘lmasdan». Halol bilan

haromni farqlash, faqat o‘z mehnati evaziga tirikchilik qilish, harom-harishdan jirkanish, haromxo‘rlikni eng katta gunohi azim va axloqsizlik deb bilish Sharq faylasuflarining eng muhim axloqiy g‘oyalari sirasiga kiradi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Sharq allomalari halol mehnat bilan tirikchilik qilish, pokiza yashashni targ‘ib etibgina qolmasdan, bu masalada o‘zlari shaxsan namuna ham bo‘lganlar. Allomalar harom taomni yoqtirmaganlar, ko‘plari hatto shoh-u amirlarning tuhfasini ham qabul qilmaganlar va boy-amaldorlarning mol-mulkini harom, deb e‘lon qilganlar. Qo‘lidan ish keladigan har bir olim-u fuzalo, sufiyu-shayx foydali mehnat bilan shug‘ullangan, faqat o‘z mehnati bilan topilgan nonni halol, deb bilishgan. Masalan, Ahmad Yassaviy – dehqon, Shayx Ibrohim Ozariy – g‘isht teruvchi, Shayx Bannon – hammol, Shayx Abulhasan – duradgor, Bahovuddin Naqshband – kimxobga gul naqshlash, Amir Sayyid Kulol – kulolchilik qilib, halol mehnat evaziga kun kechirganlar. Shayxlar va ulamolar atrofida darveshlar, shogird-u muridlar ham birgalashib qurg‘onlar qurganlar, vaqf yerlarida ishlaganlar, bog‘dorchilik chuponlik bilan shug‘ullanganlar¹⁵. Ularning hammasi tasavvuf falsafasining «luqmai halol» qoidasiga qat’iy amal qilganlar. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning fikricha, axloqan yuksak, kamolga yetgan kishi, birinchidan, halol va haqgo‘y bo‘lishi lozim. Shoirning fikricha, inson kim bo‘lmasin – sulton yoki xon, amaldor yoki oddiy kishi – baribir halollik va haqgo‘ylik uning hayotining mazmunini tashkil etishi lozim. Ikkinchidan, har bir inson mardlik va olijanoblik fazilatlariga ega bo‘lishi kerak. Bu fazilat insonning vijdon amri orqali namoyon bo‘ladi. Demak, vijdotsiz – sadoqat, sadoqatsiz – mardlik va olijanoblik bo‘lmaydi. Bu xususda Alisher Navoiy: «Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q. Har kimda bu ikki yo‘q – iymon yo‘q va har kimda iymon yo‘q – andin odamiylik kelmoq imkoni yo‘q»¹⁶, - degan edi.

Halol mehnat bilan kun kechirish, oilani boqish, tarbiyalash, insofli, diyonatli, adolatparvar bo‘lish, saxiylik, muruvvatlilik, o‘z xalqi, uning madaniyati haqida qayg‘urish, milliy iftixorni oyoqosti qilishga yo‘l qo‘ymaslik faqat yetuk vijdonli shaxslargagina xos fazilatdir.

Islom dinida ham insonlar halol bo‘lishga chaqiriladi va halollik ulug‘lanadi. Rasululloh (S.A.V.) hadislarining eng muhim va salmoqli qismi kishilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Ulardagi ota-onaga ehtirom, ilmga intilish, sabr-bardosh, shukronalikka da’vat, o‘zaro mehr, inoqlik, mehmondo‘stlik, vafo va sadoqat, mehnatsevarlik va halol luqmani sharaflash, kamtarlik, kamsuqumlik, samimiyat va rostgo‘ylik xislatlarining birinchi o‘ringa qo‘yilishi insoniyat uchun bebaho ma’naviy qadriyatlar silsilasini tashkil etadi. Ular asosida islom axloqining muazzam va mukammal bir tizim holda mintaqada puxta shakllanuvi bu davrning nihoyatda muhim hodisasi edi.

Jumladan, musulmon kishi haromga olib boruvchi har bir qadamda gunoh yozilishini va oyoqlari unga qarshi guvohlik berishini bilgan holda, bunday joylarga borishdan saqlanishi

¹⁵Abdulla Sher. Axloqshunoslik. –T.: 2007. – 239 b.

¹⁶Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. T-12. - T.: Fan.– 53 b.

lozim. Ammo halol ishlar, halol joylar tomon bosilgan har bir qadamga savob yoziladi va bu qadamlari bilan uning darajasi ko‘tariladi. Shuningdek, Alloh taolo insonlarni halol kasb qilishga va halol rizq topishga buyurgan¹⁷. Demak, halolik inson shaxsiyatining kamolot bosqichi va axloqiy fazilatlilik darajasi hisoblanadi. Jamiyatlarda ham halollik taraqqiyot garovi sanaladi. Har bir davrda halol-u pok insonlar, mutaxassislar, rahbar–kadrlar masalasi dolzarb bo‘lib kelgan. Chunki halol rahbarlar va davlat hizmatchilari ijtimoiy taraqqiyotning asosi va jamiyat farovonligini ta‘minlovchilari bo‘lishgan. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham halol kadrlar va rahbarlar, davlat hizmatchilarini tayyorlash orqali jamiyatimizda tub sifat o‘zgarishini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Shunday ekan, jadal islohotlar olib borilayotgan jamiyatimizda kadrlar masalasiga ham alohida yonashib, o‘z ishini vijdonan bajaradigan, insof bilan ish tutadigan mutaxassislar avlodini yaratish, dinu-diyonati va axloqiy fazilatlari yuksak bo‘lgan ma‘rifatli yoshlarni tarbiyalashga ham alohida e‘tibor qaratish zarur.

Bugungi kunda kadrlar siyosatida kuchli, salohiyatli kadrlar tayyorlash tizimini yaratish va uning mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biriga aylangan vaziyatda ilmiy tadqiqotlarda ham kadrlar masalasi turli fanlar doirasida tadqiq etilmoqda. Har bir soha o‘zining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda kadrlar masalasini yoritishga urinmoqda. Aslida kadrlarning ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va ahamiyati har bir davlatda demokratik tamoyillarni keng yoyilishi va demokratlashib borishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Markazlashgan va avtokratik boshqaruvdagi davlatlarda kadrlar masalasi kun tartibida turmaydi. Chunki kuchli qo‘rqituv va ruhiy bosish ostida jamiyatni boshqarishda bilimli va salohiyatli kadrlardan ko‘ra xarbiy kuchning ahamiyati yuqori bo‘ladi. Lekin bugungi kunda mamlakatimizda demokratik islohotlar jarayonida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida boshqaruvning kuchga emas, adolatli boshqaruvga asoslanishi kadrlar tayyorlashni dolzarb vazifalardan biriga aylantirmoqda. Halol kadr tushunchasi vijdonan ish yuritadigan, insofli, adolatli, qonunlarni hurmat qiladigan, korrupsiya va ta‘magirlikning har anday ko‘rinishlariga qarshi tura oladigan davlat hizmatchilariga nisbatan ishlatiladi. Sadoqatli kadr bo‘lsa, o‘z ishiga fidoi, sodiq va mas‘uliyatli mutaxassislarni anglatadi.

Bugungi kun kadrlar tayyorlash tizimida kadrlarga nisbatan bilimli, teran tafakkur va keng dunyoqarashli, salohiyatli tushunchalari birlashtiriladi va ushbu hislatlarga ega mutaxassislar qadrlanadi. Lekin bugun kadrlardan nafaqat bilimli va salohiyatli bo‘lishlari, halol bo‘lishlari ham talab etilmoqda. Shunday ekan, «bugun fidoyilar oldida turgan yana bir muhim vazifa bu- mamlakatimizdagi barqarorlikka, tinchlik va osoyishtalikka raxna solmoqchi bo‘lgan har qanday kuchlarga qarshi murosasiz kurash olib borishdan iborat»¹⁸. Shunday ekan, bugungi jamiyatlarda korrupsiyaning keng quloch yoygan xolatlari namoyon bo‘layotgan vaziyatda, jamiyatning quyi qatlamidan boshqaruvning eng yuqori nuqtalarigacha

¹⁷Islom odoblari ensiklopediyasi. –T.: Hilol-Nashr, 2019. – 90 b.

¹⁸Raxmatullaev T. Siyosiy partiya va demokratik tamoyillar. S.: Zarafshon. 1999.– 33 b.

poraxorlik avj olgan sharoitda halol kadrlar avlodini tarbiyalash muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z tarqiiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz milliy tiklanishdan - milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘ydik. Bu ulug‘ maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo‘lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligi¹⁹ kelib chiqmoqda. Buning uchun «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan bosh tamoyilga amal qilish lozim. Buning uchun, haqiqiy halol kadrlar avlodini yarata olsakgina davlat organlari xalqqa xizmat qilishi, xalq manfaatlari hamma narsadan ustun bo‘lishi mumkin. Shuningdek, «asosiy vazifa, bu - yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, har tomonlama to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirish»²⁰ kerak bo‘ladi.

Halol kadrlarning yangi avlodini yaratish uchun inson kapitaliga alohida e‘tibor qaratish, yoshlarni tom ma’noda ma’rifatli qilish, ilmiy va dinu-diyonatli qilib tarbiyalash lozim. Inson kapitalini rivojlantirish uchun mamlakatimiz ilmiy va gumanitar salohiyatidan keng foydalanish lozim. Shu munosabat bilan ilmiy va innovatsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha sheriklikning yaxlit tizimini shakllantirish kerak bo‘ladi.

Statistik ma’lumotlarga e‘tibor qaratsak, shu yillarda 1177 nafar mansabdor shaxsning korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarda ayblanishi jamiyatimizda halol va sadoqatli kadrlar tayyorlash tizimining haqiqiy axvolini namoyon qildi. **Shuning uchun har bir davlat idorasida jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘z ichki dasturlari bo‘lishi shart.** Bu borda mamlakatimizda so‘ngi yillarda alohida ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoniga muvofiq, yurtimizda huquqiy ta’lim va ta’limni tubdan yaxshilash, huquqiy bilimlarni keng miqyosda targ‘ib etishga qaratilgan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» tasdiqlandi.

Shuningdek, sifatli davlat xizmati tizimini yaratish va uning faoliyatining asosiy tamoyillarini, davlat xizmatining kadrlar tarkibini shakllantirishga, davlat xizmatiga ishga kirishga bo‘lgan talablarni, uni o‘tashni va yakunlashni tartibga soluvchi «Davlat xizmati to‘g‘risida»gi qonun loyihasining ishlab chiqilishi ham davlat organlari faoliyatini shaffoflashtirish, halol kadrlar tayyorlash tizimini yaratish yo‘lidagi muhim odimlardan biri bo‘ldi. Zero, «hozirgi vaqtda davlat hokimiyat idoralarida ko‘p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish, ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi sezilmoqda. Eng yomoni bu holat ishimizga xalal bermoqda. Bir idorani

¹⁹ Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. –T.: O‘zbekiston. 2019. – 339 b.

²⁰ Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017, 1-tom, – 56 b.

qarasangiz, yuzlab odam nimaga ishlab turibdi. Boshqa bir idorani qarasangiz ish ko‘p, vazifa ko‘p, ishlaydigan odam kadr yetishmaydi»²¹. Darhaqiqat, samarasiz kadrlar menejmenti ham jamiyatimizda mutaxassislarning samarali faoliyatini cheklovchi mexanizmga aylanib qolganligi ma’lum bo‘lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, «o‘z oldimizga qo‘ygan ko‘p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, g‘ayrat-shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz»²².

Mamlakatimizda, ijtimoiy hayotda adolatni va qonun ustuvorligini ta’minlash, shuningdek, boshqaruv sohasini demokratlashtirish, qonun chiqaruvchi va ijro organlari faoliyatini tartibga solish, ularga mustaqillik berish, sud tizimining erkinligini ta’minlash, bir so‘z bilan aytganda fuqarolik jamiyati qurish tomon islohotlarni qonuniy intizom asosida, jamoatchilik nazoratiga tayangan holda olib borish halol davlat hodimlari avlodini yaralishiga asos bo‘ladi. Shunday ekan, halol va sadoqatli kadrlar avlodini tayyorlashdagi eng muhim omil – ijtimoiy adolat tamoyilini to‘la shakllantirishimiz zarur. «Ijtimoiy adolat – bu siyosiy qarashlari, jinsi, millati, tili va diniy e’tiqodidan qat’i nazar, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta’minlashdir. Bu – ta’lim, tibbiyot va boshqa sohalaridagi imkoniyatlar tengligidir. Bu – kafolatlangan mehnat faoliyati erkinligi, mansab lavozimlari bo‘yicha ko‘tarilib borishdagi imkoniyatlar tengligidir. Eng muhimi, bu – keksa avlod vakillari va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikdir»²³. Darhaqiqat, nafaqat kadrlar tayyorlashda, balki kadrlarni o‘z lavozimiga tayinlashda ham ijtimoiy adolat mezonlarini ishlab chiqish lozim. Chunki halol va sadoqatli kadrlar avlodi halollik va qadr mavjud bo‘lgan ijtimoiy muhitda shakllanadi. Halollik qadrlanmaydigan jamiyatda ulg‘aygan avlodlardan xalollikni talab qilishning o‘zi adolatsizlikdir.

Shuningdek, kadrlarni tanlab olish tizimidagi eskicha an’analardan butunlay voz kechish vaqti kelganligini zamonning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Buni davlatimiz rahbari ham ko‘plab marotaba o‘z nutqlarida ta’kidlab kelmoqdalar. Jumladan, «davlat organlariga kadrlarni tanlashda eskidan saqlanib qolgan, qo‘shirnoq ichidagi bir «tizim» mavjud edi. U ham bo‘lsa, yaqin qarindoshlari sudlangan, deb fuqarolarni ishga qabul qilmaslik yoki yuqori lavozimlarga tayinlamaslik bilan bog‘liq. Bunday noma’qul yondashuv tufayli ko‘plab yoshlarimiz, malakali mutaxassislarimiz «beayb aybdor bo‘lib», yaqin qarindoshlarning qilmishlari uchun jabr tortib keldilar»²⁴. Zotan, demokratik normalarga ham, hayotning

²¹ Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T: «O‘zbekiston», 2017, – 25-26 b.

²² Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.- T: «O‘zbekiston». 2018. 2-tom, – 491 b.

²³ Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O‘zbekiston. 2018. – 35 b.

²⁴ Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O‘zbekiston. 2018. – 20 b.

bugungi talablariga ham umuman to‘g‘ri kelmaydigan bunday adolatsiz tizimdan vaoz kechish, kadrlar tayyorlashda va tayinlashda undagi insoniylik sifatlarini va bilim darajasini asosiy mezon sifatida qadrlash zamoni keldi. Bugungi kunda mamlakatimizda kadrlar muammosining dolzarb ahamiyat kasb etishida ham shunday omillar sabab bo‘lmoqda. Natijada halol va sadoqatli, bilimli va tajribali kadrlar avlodini arziyas asoslar bilan rad etilishi, ularga imkoniyat berilmasligi ayrim kuchli kadrlarni horijiy davlatlarga ketib qolishiga sabab bo‘ldi. «Ming afsuski, mamlakatimizda katta ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan ayrim olimlar, iste’dodli yoshlar o‘rtasida horijiy davlatlarga ketib qolish holatlari ham yo‘q emas. Qancha-qancha o‘zbek yigitlari, o‘zbek qizlari bugun chet ellardagi yirik kompaniya va banklarda, nufuzli universitetlar, xalqaro tashkilotlarda katta-katta lavozimlarda xizmat qilmoqda»²⁵. Umuman olganda, halol va bilimli kadrlarni moddiy va ma‘naviy qadrlanmasligi, iqtisodiy bahoning noto‘g‘riligi, salohiyatiga yarasha maosh to‘lanmasligi, shuningdek, mahalliychilik, tanish-bilishchilik, kadrlar tanlashdagi korrupsiyaviy xolatlar ularning faoliyatiga ko‘p yillar davomida to‘siq bo‘ldi. Bugungi yangi milliy taraqqiyot bosqichida mamlakatimizda kadrlar masalasiga yangicha munosabat va ularni qadrlar, moddiy tomondan yetarlicha rag‘batlantirish islohotlari olib borilmoqda. Bu esa, yangicha sifatlarga ega kadrlar avlodini yetishtirishga zamin hozirlaydi. «Islohotlar albatta eskicha yashash, eskicha ishlashga o‘rganib qolgan ayrim mansabdorlarga yoqmaydi. Buniyam ochiq aytishimiz kerak. Chunki o‘zgarish, yangilanish ularning tinchi va oromini, huzur-halovatini buzadi. Lekin hayot davom etar ekan, hayot talabi bo‘lgan islohotlar ham izchil davom etishi muqarrar. Bu haqiqatni va talabni barcha darajadagi rahbarlar chuqur anglab olishlari zarur»²⁶ligini ta’kidlash orqali davlatimiz rahbari yangicha yashash va ishlash zamoni kelganligini, buning uchun zamoniviy dunyoqarashga ega kadrlar avlodi, halol-u pok mutaxassislarni tarbiyalash kerakligiga urg‘u beradilar.

Boshqa tomondan, kadrlar menejmetida ularni o‘ziga munosib joyga, oqilona taqsimlashda ham adolatning, mantiqning, izchil taktikaning mavjud emasligi ham ular bilan bog‘liq muammolarni ko‘paytirib yubormoqda. Salohiyatli kadrning o‘rnini munosib bahlanmasligi va uning mehnatidan oqilona foydalanmaslik, tanish-bilishlik sistemasi va boshqa omillar ham sadoqatli kadrlar tayyorlashda ko‘plab muammolarni yaratib keldi. Shuningdek, kadrlarga o‘z imkoniyati va iqtidorini ko‘rsatishga imkoniyatni berilmasligi, ularni har doim tajribasizlikda ayblanishi, mutaxassisning xato qilishga haqqi yo‘qligi va keksa avlodning ularga imkoniyat bermasligi ham salohiyatli kadrlar inqirozini keltirib chiqardi. «Hozirgi vaqtda davlat hokimiyat idoralarida ko‘p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi sezilmoqda. Eng yomoni bu holat ishimizga xalal bermoqda. Bir idorani qarasangiz, yuzlab odam nomigagina ishlab turibdi. Boshqa bir idorani qarasangiz ish ko‘p, vazifa ko‘p,

²⁵Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O‘zbekiston. 2018. – 140 b.

²⁶Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilingan ma’ruzadan // Xalq so‘zi. 2018. 11 dekabr.

ishlaydigan odam kadr yetishmaydi»²⁷. Mana shunday omillar mamlakatimizda sadoqatli kadrlarni inqirozini keltirib chiqardi. Bilimli va salohiyatli kadrlar boshqa davlatlar uchun xizmat qilishni afzal ko‘rgan bo‘lsa, boshqa birlari o‘z yo‘nalishini o‘zgartirdi yoki umuman o‘z sohasini tark etdi. Bunday an‘ananing bugungi kunda ham davom etishi salohiyatli kadrlarning tarbiyalanish tizimini ham ishdan chiqardi. Bo‘lajak mutaxassis uning ilmi, tajribasi va fazilatini qadrlamaydigan jamiyat uchun harakat qilish, izlanish foydasiz ekanligi to‘g‘risida tushuncha shakllanib ulgurdi. Shunday ekan, jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichida islohotlarning yo‘naltiruvchisi va bajaruvchisi bo‘lgan kadrlar masalasiga horijiy tajribani o‘rgangan holda yechim topish, ularni tarbiyalash tizimini isloh qilish, yangicha munosabatni shakllantirish, halol va sadoqatli, bilimli kadrlar avlodini tarbiyalashga davlat siyosati darajasida e’tiborni qaratish zarurligi kelib chiqmoqda.

Xulosa qilganda, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash va ularning mehnatidan samarali foydalanishda ushbu jarayonga ta’sir qiladigan ob’ektiv va sub’ektiv omillarni chuqur o‘rganish lozim. Bir xolatda kadrlarga adolatli shart-sharoitning mavjud emasligi muammo bo‘lsa, boshqa vaziyatda kadrlar darajasiga yarasha maosh to‘lanmasligi ularning salohiyatidan yetarlicha foydalana olmaslikni keltirib chiqarmoqda. Boshqa tomondan aqliy salohiyati yuqori kadrlarda axloqiy fazilatlar, yuksak vijdon, insofning yetishshmasligi ularning korrupsiyaviy xolatlariga aloqadorligini keltirib chiqarmoqda. Bunday vaziyatda yangicha kadrlar avlodini yaratish va ularning moddiy imkoniyatlarini hisobga olish va ularda yuksak axloqiylik sifatlarini shakllantirish dolzarblik kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.–9 b.
2. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llangan bayram tabrigi // Xalq so‘zi. 2017. 15-yanvar’.
3. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / Xalq so‘zi 2017. 1-iyul.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (22-dekabr 2017-yil). T.: O‘zbekiston. NMIU, 2018.– 80 b.

²⁷ Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T: O‘zbekiston, 2017. – 25-26 b.

7. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 2020. 25-yanvar.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi// Xalq so‘zi. 2020. 30-dekabr.
9. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. – T.: O‘zbekiston, 2019. 400 b.
10. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – T: O‘zbekiston, 2020. – 452 b.
11. Mirziyoev Sh.M. Yangi taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2020. – 454 b.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

ZAMONAVIY MAKTABLARDA ADABIYOT O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI <i>Duschanova Nilufar Sabirbayevna</i>	4
ILTIFOTNI IFODALOVCHI NUTQ AKTLARINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN AUTENTIK TA'LIMiy O'YINLAR VA INTERAKTIV MASHG'ULOTLARNING TAVSIFI <i>Sadikov Erkin Tursunovich</i>	12
TALABALARDA VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISH: ARTPEDAGOGIKANING DIDAKTIK IMKONIYATLARI <i>Madaliyev Raxmiddin Ismoilovich</i>	18
EKOHUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI <i>Shodmonov Furqat Abdimumin o'g'li, Salimova Shaxnoza Lutfillo qizi</i>	27
TA'LIM JARAYONIGA INKLYUZIV TA'LIMNI TARG'IB QILISH ASOSLARI <i>Valixanova Nigora Abdukaxxorovna</i>	32
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Sanobar Abdullayeva Ibadullayevna</i>	40
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MATNNI O'QIB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI <i>Eshmatova Umida Abdupayez qizi</i>	45
BO'LAJAK PEDAGOGLARNING ANTIKORRUPSION KOMPETENTLIGINI «HALOLLIK VAKSINASI» ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI <i>Isroilov G'olib Rashidovich</i>	52
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI <i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i>	64
THE ROLE OF AGE IN CRITICAL PRAXIS IN L2 ACQUISITION <i>Irgashova Guzal Abdumajidovna</i>	69
SAMARQAND SHAHRIDA JOYLASHGAN AVLIYO ALEKSIY SOBORI QURILISHI TARIXI <i>Abduvohidov Dilshod Narbotirovich</i>	77
TEACHING READING FOR BEGINNERS <i>Ataxojayev Toxirjon Maxmudjonovich</i>	81
DUDUQLANISHNI BARATARAF ETISHDA CHEVELOVA METODIKASIDAN FOYDALANISH ASOSLARI <i>Babayeva Azizabonu Hamidjon qizi</i>	87
DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL LEXICAL UNITS OF THE UZBEK LANGUAGE <i>Gulmira Ergasheva</i>	92
FIZIKA FANIDAN O'QUVCHILARNI FAN OLIMPIADALARGA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Abbaz Kunnazarov Bisenbaevich</i>	98
CHET TILI O'QITISH METODIKASI VA KOMMUNIKATIV YONDASHUV <i>Ganiyeva Dildoraxon Azizovna</i>	102

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar

Кокандский ГПИ. Научный вестник

“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31-martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Qo‘qon DPI Kengashining 30.08.2024-yildagi yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan. (1-bayonnoma).

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Bosishga ruxsat etildi: 2024-y. Nashriyot bosma tabog‘i –16,375.

Shartli bosma tabog‘i –8,18 Bichimi 60x84 1/8. Adadi 100.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Poligraf Super Servis» МЧЖ

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2 –uy

Elektron manzil: kspi_info@edu.uz

№4/2024